



International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Journal home page:
<https://journal.jbnuu.uz/>



METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF COOPERATIONAL RELATIONS OF TEACHER AND STUDENTS ON THE BASIS OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Nilufar Kholmuratova¹

Jizzakh State Pedagogical University

KEYWORDS

Cooperation teacher,
student, factor, ability,
method

ABSTRACT

In this article, one of the important pedagogical conditions that affect the methods and means of developing the thinking ability of primary school students is the establishment of cooperation between the teacher and the student, as well as the professional competence and pedagogical skills of the teacher, especially in the lower grades, concepts related to problem solving are highlighted. associated with the oral and written speech of students.

2181-3884/©2023 in Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.
DOI: 10.5281/zenodo.8025241

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master's student of elementary education, Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI ASOSIDA O'QITUVCHI-O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI HAMKORLIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Hamkorlik o'qituvchi,
o'quvchi, omil, qobilyat, usul

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim pedagogik shart-sharoitlardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligini yo'lga qo'yish hamda o'qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi bilan bog'liq muommolarni bartaraf qilishga oid tushunchalar yoritilgan.

Ma'lumki, Yangi O'zbekiston qurish sharoitida bugungi kun rivojlangan mamlakatlar tajribasida innovatsion faoliyatni tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish masalasi ta'lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish hamda ularning innovatsion faoliyatini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalom bor boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan davirdan boshlanishi zarur hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo'yadi. Mazkur vazifalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "Ta'lim -tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi PQ - 4884 - son qarorda mamlakatimiz ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida har bir o'quvchi kasbiy kompetentligidan kelib chiqib mustaqillikka va hamkorlikka intilish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bilimlarni o'zlashtirish faqatgina mavjud ob'ektiv hodisa sifatida talqin etilishi mumkin emas. Unda o'z - o'zini rivojlantirishning bir qator ichki quvvatlari ham ishtirok etadi. U sub'ektivlik belgilariga ham ega. Kasbiy kompetentlik shaxsiy tajribaga xos bo'lib, u

tabiiyligi, ilmiyligi, ilmiy-tarixiy ongga zid bo'lmagan xususiyatlar bilan belgilanadi. Shu bilan birga u o'zida muayyan shaxs ongiga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlik pedagogning shaxsiy yutuqlarining tartibga soluvchisi, shuningdek, kasbiy o'sish va pedagogik mahoratni takomillashtirishga undovchi bo'lib hisoblanadi. Refleksiv kompetensiya alohida maxsus kompetensiyalar bilan bevosita integratsiyalashgan. Maxsus kompetensiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchisini boshqa pedagoglardan farqlaydi va qo'shimcha o'rganishni talab etadi. Biz uning mazmunini quyidagicha belgiladik: a) fanga oid kompetensiya – boshlang'ich ta'lim kursi mazmunining ilmiy asoslariga oid bilimlarini qo'llashga tayyorgarlik, o'quv faniga ijobiy munosabat, o'quv materialini mazmuni bilan o'zaro aloqadorlikda zarur hajmdagi maxsus tushunchalarni ongli egallaganlik, fan bo'yicha ilmiy axborotni tushunish va tizimlashtirish malakasi; o'quv fani mazmunini ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirish malakasi. b) metodik kompetensiya - o'tilayotgan o'quv fani bo'yicha o'quv materialini rejalashtirish, tanlash, sintezlash va qurishga tayyorlik, o'quv fani bo'yicha mashg'ulotlarning turli shakllarini tashkil etishga tayyorgarlik, ta'lim olishga faoliyatli yondashuvlarni amalga oshirishga tayyorgarlik va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv ishlarini tashkil etish malakasi, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini qo'llashga tayyorgarlik, o'qitishning sog'liqni saqlash texnologiyalarini malakali qo'llash. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompetentligi tuzilmasini aniqlashga bunday yondashuvda uni ta'limning yangi mazmunini hamda yangi o'quv rejalari, dasturlarini ishlab chiqishda, darsliklar yozishda foydalanish, shuningdek, o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda unga tayanish hamda yosh mutaxassisning moslashish davrini qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammosini ilmiy jihat va pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko'ra shaxs o'z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko'zga tashlanadi.

2. O'qituvchi-o'quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili.

O'quv jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchining kasbiy kompetentligi asosida hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayratini sarflashga undaydi. Bu o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o'quvchi o'zini pedagogik ta'lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O'qituvchining o'rganilayotgan fan

bo'yicha qaysidir bir ma'lumotga aniqlik kiritish paytida o'quvchilarga yordam so'rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi [1-3].

Hamkorlikka asoslangan ta'limda esa, o'quvchilar alohida shaxs sifatida tan olinadilar. O'zlashtirishi past yoki imkoniyatlari cheklangan o'quvchilar ham do'stona munosabat o'rnatilgan sinfda o'z ovozlari ega bo'ladilar. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, o'quv jarayonining loyihasini ishlab chiqadi, unda har bir o'quvchining ishtiroki ko'zda tutiladigan vaziyatlar kiritadi. Guruhlar yoki juftlikda ishlash o'quv jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad asosida tanlanadi. Interfaol usullar yordamida tashkil etilgan guruhli ishda har bir o'quvchining ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladigan vazifalar va o'quv topshiriqlari beriladi [1-30]. Natijada o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Buning natijasida o'quvchilarning imkoniyatlari kengayadi va o'zlariga beradigan baholari ko'tariladi. Shu tariqa, o'quvchi o'z qadr-qiyamatini anglay boshlaydi. Barcha o'quvchilar o'zlarining turli-tuman ekanliklarini anglash bilan bir qatorda, o'z kuchlariga ishonch hosil qiladilar. Bu esa, o'quvchilarning kelajakda mikrosotsiumda o'z o'rinlarini topishlari, atrofdagilar bilan samarali muloqot, hamkorlik va do'stona munosabat o'rnatishlari, o'z qarashlarini himoya qilishlariga imkon beradi. Ular bir-birlarini kamsitmaslik, barchalarining teng huquqli ekanliklarini e'tirof etishga o'rganadilar. Ta'lim jarayonida o'quvchilardagi ushbu xususiyatlar takomillashtirilishi kerak. Buning natijasida, ota-onalarning ta'lim tizimiga bo'lgan ishonchlari ortadi. O'zaro hamkorlik jarayonida o'quvchilar:

- to'laqonli, shaxsiy o'zaro munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun zarur bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarni egallaydilar;
- shaxslar, ijtimoiy guruhlar va jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi aloqalar tenglik tamoyiliga asoslangan bo'lishini anglab yetadilar;
- atrofdagilarni o'rganish orqali o'zlarini o'rganadilar va o'quv faoliyatlariga yangicha nuqtai nazar bilan qaray boshlaydilar;
- sinf, maktab, mahalla va butun jamiyatdagi barcha kishilarning ehtiyojlari, iqtidorlari va sa'y-harakatlarini o'zaro mutanosib ekanligini tushunib yetadilar;
- o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar, o'z faoliyatlariga ijobiy baho beradilar;
- boshqalar, shu jumladan, imkoniyatlari cheklanganlarning his-tuyg'ulari, ehtiyojlari, imkoniyatlari bilan hisoblashish lozimligini tushunib yetadilar;
- hamkorlik kuchini his qilib, uning muhimligini tushunib yetadilar va buning natijasida o'quvchilarda ziddiyatlarni bartaraf etish ko'nikmasi shakllanadi;
- mustaqil mutolaa qilish, axborot vositalaridan foydalanish, dunyoni keng qamrovli tarzda anglash, milliy qadriyatlar, istiqloq, milliy g'oya va uning ahamiyatini ongli ravishda anglaydilar;
- insoniy qadriyatlar, shaxsning sha'ni, obro'-e'tibori, huquqlari va histuyg'ularini hurmat qilishga o'rganadilar;
- inson va tabiatning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos jihatlarni anglab yetadilar;

- o'tmish, bugungi kun va kelajak o'rtasidagi uzviylikni ongli ravishda idrok etadilar, o'tmishsiz kelajak yo'qligini bilib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy tarixiy, ma'naviy-madaniy merosni qadrlashga odatlanadilar.[2]

«Hamrohingga o'rgat». Bu usulni doktor Fred Jons tavsiya etgan. Uni qo'llash yo'li quyidagicha:

Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi.

1. Darsni o'tish modelidan foydalanib, birinchi hamkor ikkinchisiga, ikkinchi hamkor birinchisiga modeldagi qismni o'rgatadi.

2. O'qituvchi xohlovchilarga ta'lim metodini modellashtirib avval eshitish yo'li bilan keyin ko'rsatib model qismlarini o'rgatadi. Keyin o'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganlarini aniq takrorlaydi.

O'qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o'ziga ikkita ixtiyoriy hamkorni tanlaydi. U modelning birinchi qismini aytib, ularni bajarishni so'raydi. Shunday yo'l bilan o'qituvchi hamkorlarga modelni bosqichma-bosqich o'rgatib boradi.

1. O'qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qism bo'yicha bir-biriga o'rgatishni aytadi. Bu ishning bajarilishini nazorat qilib, baholab, xatolarni bartaraf etishni ko'rsatadi. O'qituvchining hamkorlari esa unga sinfni nazorat qilish va baholashda yordam ko'rsatishadi.

2. Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini bajarishda davom ettiriladi.

Bu usul o'quvchilarning bir-biriga va o'ziga talabchan bo'lishga, o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashga, mustaqil ravishda xatolarni bartarafetishga o'rgatadi.

O'qituvchilar hamda o'quvchilar orasidagi hamkorlikka asoslangan muloqot turlicha shakl va ko'rinishlarga ega. Masalan, 1) o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan "yuzma-yuz" muloqot; 2) o'quv-tarbiya jarayonida texnik vositalar yordamida amalga oshiriladigan muloqot; 3) o'quv-tarbiya jarayonidan tashqarida amalga oshiriladigan do'stona muloqot; 4) sub'ekt-sub'ekt yoki sub'ekt-ob'ekt darajasida amalga oshiriladigan muloqot kabilar.

O'quvchilar bilan o'qituvchi orasida ishchan muloqot va hamkorlikning maqsadga muvofiq tarzda o'rnatilishi va samaradorlik kasb etishi uchun o'qituvchilar global axborot oqimida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zarur bo'lgan axborotlarni saralash, o'quvchilarga maqsadga muvofiq tarzda taqdim etish usullarini o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Chunki, bugungi kunda o'quvchilarni zarur axborotlar bilan ta'minlash maromini tezlashtirish va usullarini takomillashtirish talab qilinmoqda. Buning uchun, o'qituvchi-o'quvchilar orasidagi munosabatlar sog'lom bo'lishi, ishchan va do'stona xarakter kasb etishi lozim. Chunki, taraqqiyotning bugungi bosqichida "inson-inson", ya'ni o'qituvchi-o'quvchilar hamda o'quvchilar bilan o'quvchilar orasidagi dialog o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlashi tobora ko'proq ayon bo'lmoqda[5-6]

Xulosa. Ilg'or nazariyalarning amaliy tadbiqi shuni ko'rsatmoqdaki, kasbiy kompetentlikga ega o'qituvchi hamda o'quvchilarning ijtimoiy tajribalari, ular orasidagi hamkorlikka asoslangan do'stona munosabatlar, buning natijasida o'quvchilarda

shakllangan shaxsiy sifatlar va hattoki ayrim nuqsonlar ham o'zaro muloqot jarayonining mahsulidir. Ta'lim jarayonidagi ishchan muloqotning muhim vazifalaridan biri – uning samaradorligini ta'minlash bilan bir qatorda, o'qituvchi hamda o'quvchilarning bir-birlarini tushinishlariga erishishdan iboratdir. Ta'lim jarayonidagi o'zaro hamkorlik natijasida o'quvchilarning ijtimoiy tajribalari ortadi va ular o'zlari uchun zarur bo'lgan insoniy sifatlarni o'zlashtiradilar.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006-y. – 160 b. 66-bet.
2. Inog'omova S. Mantiqiy fikrlash // J. Boshlang'ich ta'lim. 2000. №2. – 20-21 betlar.
3. Yo'ldoshev J.G., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. "Interfaol ta'lim sifat kafolati" (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). – T.: 2008-y. – 172 b. 11-bet
4. Дилова Н.Г. (2018). Важность совместного обучения в повышении эффективности начального образования. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. C. 90-91.
5. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12, P. 190-196.
6. Дилова Н.Г. (2019). Влияние технологии сотрудничества на успеваемость учащихся начальных классов. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. C. 63-64.